



SUG'URTALOVCHILARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH VA XALQARO STANDARTLAR TALABLARIGA MUVOFIQLASHTIRISH

Mavrulova Nilufar Abduxalilovna

O'zbekiston Respublikasi Toshkent moliya instituti dotsenti, PhD

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Received: xxxx Accepted: xxxx Issue: 1 DOI: xxxx	Mazkur maqolada sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati me'yorlariga amal qilgan holda faoliyat yuritishi va moliyaviy barqarorlikni saqlashi ularning raqobatbardoshligi va investitsiya jozibadorligi oshishiga hamda xalqaro bozorlarga chiqishiga yo'l ochib berishi bayon qilingan. Shuningdek, to'lov qobiliyati me'yorlariga amal qilish bo'yicha Solvency II direktivasini amaliyotga tatbiq etish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi o'rganilgan, tegishli xulosalar chiqarilgan hamda bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
KEYWORDS sug'urtalovchi, to'lov qobiliyati, kapitalning yetariligi, sug'urta nazorati, investitsiya jozibadorligi, reyting agentliklari, Solvency II direktivasi, SWOT-tahlili.	

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida sug'urta kompaniyalarining faoliyatini tavakkalchilikka qaratilgan yondashuv asosida tartibga solishga yo'naltirilgan, sug'urtalovchilarning kapitali yetariligi va to'lov qobiliyati bo'yicha xalqaro standartlarni sug'urta faoliyatiga bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan [1]. Bunda to'lov qobiliyati yetariligidini e'tirof etuvchi xalqaro standartlarga, xususan, "Sug'urtalovchi va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq quyidagi reytinglardan biriga ega bo'lish tavsiya etiladi[2].

- "Moody's Investors Services" (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "Baa3" dan past bo'lmagan;
- "Standard & Poor's Corporation" (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "BB+" dan past bo'lmagan;
- "Fitch, Inc" (Buyuk Britaniya) agentligi tasnifi bo'yicha "BB–" dan past bo'lmagan;
- "A.M. Best Company, Inc." (AQSH) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "B+" dan past bo'lmagan;
- "Ekspert–RA" (Rossiya Federatsiyasi) reyting agentligi tasnifi bo'yicha "A++" dan past bo'lmagan.

Shuningdek, mazkur reyting agentliklaridan birining e'tirofiga sazovor bo'lish orqali qayta sug'urta tashkiloti sifatida faoliyat olib borish, ya'ni kiruvchi qayta sug'urta shartnomalarini tuzish vakolatiga ega bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, to'lovga layoqatli, moliyaviy barqaror hamda ishonchli tashkilot sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekistonda sug'urtalovchilarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy mustahkamligini ta'minlash maqsadida yuqorida qayd etilgan xalqaro standartlarga erishish bilan bir qatorda to'lov qobiliyatini ta'minlashning Solvency II standartini joriy etish maqsadga muvofiq. Mazkur tadqiqot ishi mahalliy sug'urtalovchilar uchun to'lov qobiliyati standartlarini joriy qilishning muhimligi bilan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad barcha umumiy sug'urta soha tashkilotlari uchun to'lov qobiliyatiga o'atilgan me'yorlarni qayta ko'rib chiqish hisoblanadi va bunda xorij tajribasi o'rganiladi.

Tadqiqot maqsadi va usullari. Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining globallashuv jarayonlariga kirib boishi sharoitida sug'urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro standart talablariga moslashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda empirik tahlil usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Moliya institutlari, xususan sug'urta kompaniyalarining ishonchligi (to'lov qobiliyati) ularning rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Sug'urta kompaniyasining ishonchligini baholash uning mijozlari, biznes hamkorlari hamda investorlar uchun dolzarb ahamiyatga ega. Bunday masalani hal qilishning eng universal usuli reyting agentliklarining e'tirofiga sazovor bo'lish hisoblanadi. Jahonda bir nechta mashhurlikka ega bo'lgan xalqaro reyting agentliklari borki, ularning bahosiga so'zsiz ishoniladi va kafolat sifatida qaraladi. Biroq bu jarayon shunchaki oson kechmaydi, har bir agentlik o'ziga xos reytinglash uslubiga va baholash tizimiga ega, bundan tashqari, ularga berilgan baho muntazam qayta ko'rib chiqiladi. Sug'urta bozorida kompaniyalarning faoliyatini reytinglashning turli usullari mavjud bo'lib, u bilan ixtisoslashgan reyting agentliklari, tahlilchilar tuzilmasi va hatto, mijozlar ham shug'ullanadi. Ular orasida keng tarqalgan usullar bo'lib reyting va renking hisoblanadi. Bu ikki tushuncha talaffuzda o'xshash bo'lgani bilan, turli ma'nolarga ega: reyting – kompaniya faoliyati ko'rsatkichlarini sifat jihatdan baholash, renking esa miqdor jihatdan baholashni nazarda tutadi. Renking sug'urta nazorati organi tomonidan, reyting esa agentlik tomonidan tahlil qilinadi. Sug'urta kompaniyalari reyting ularning zimmasidagi majburiyatlarga javob berish qobiliyatini xarakterlovchi moliyaviy barqarorlikni ifodalaydi. Demak, bunday natija mijozga sug'urta hodisasi natijasidagi zararlarning to'liq qoplanishidan darak beradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, reytingning past natijalariga ega bo'lish yoki umuman ega bo'lmaslik hollari sug'urta bozori tarixida kompaniyalarni bankrotlikka duchor qilganligi to'g'risida ma'lumotlar ham bor. Va yana aytish joizki, yuqori reytingning mavjud bo'lishi kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlari to'g'risida yuz foizli kafolatni berolmaydi. Biroq, moliyaviy nochorlikka duchor bo'lish ehtimolligi bir yoki undan kamroq foizni tashkil etadi. Shuningdek, sug'urtalovchilar moliyaviy bo'lmagan ko'rsatkichlar (xizmat ko'rsatish sifati, servis

darajasi, boshqaruv sifati, kompaniyaning ijtimoiy mo'ljallanganlik) orqali ham baholanadilar.

Xalqaro reyting agentliklari tahlili kompaniyalarning nafaqat joriy moliyaviy holatiga baho beradi, balki kelgusida unda kuzatilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ham o'rganadi. Reytinglash metodologiyasi ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilgan holda quyidagi yo'nalishlarga asoslanadi[3.96]:

- tashkiliy tuzilma tahlili;
- amaliy faoliyat tahlili;
- kompaniya boshqaruvi tahlili;
- korporativ boshqaruv tahlili;
- moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili.

Tashkiliy tuzilma tahlili. Bu bosqichda reyting agentligi quyidagi omillarni tahlil qiladi: kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va mustahkamligi, sho'ba kompaniyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash salohiyati, ularning kuchli va kuchsiz tomonlari, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi rasmiy kafolati.

Amaliy faoliyat tahlili. Bu bosqichda kompaniya raqobatbardoshligining kuchli va kuchsiz tomonlari, faoliyat strategiyasi va biznes tuzilmasi sharhlanadi. Amaliy faoliyat tahlili reytinglash jarayonining muhim bosqichi bo'lib, quyidagi baholash turlarini o'z ichiga oladi: sotuv kanallari va ularning tuzilishi, biznes turi, bozorda egallagan ulushi va rivojlanish istiqbollari, savdo belgisining taniqliligi va mijozlar bazasining ko'lami, xarajatlarning samaraliligi va faoliyat qamrovi, mahsulot assortimenti va geografik qamrab olinganlik, anderryting siyosatining o'ziga xosligi, ma'muriy va texnologik imkoniyatlar.

Kompaniya boshqaruvi tahlili. Bu reytinglash jarayonining murakkab va hal qiluvchi bosqichlaridan biri bo'lib, boshqaruv tizimining malaka darajasi, boshqaruvchi shaxsning kadrlarni yo'qotish darajasi, ikkinchi darajali boshqaruvchi kadrlarning sifati, tashkiliy tuzilma, risklarni boshqarish tizimi imkoniyatlari kabi omillar baholanadi.

Korporativ boshqaruv tahlili kompaniyani boshqarish va nazorat qilish, boshqaruv samaradorligini monitoring qilish tizimini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili ko'p sonli moliyaviy koeffitsiyentlar va miqdor ko'rsatkichlarining hisob-kitobini o'zida aks ettiradi. Bunday ko'rsatkichlarni baholash quyidagi muhim omillardan tarkib topadi: anderryting sifati, daromadlilik, investitsiyalar va likvidlik, sug'urta zaxiralarining yetarliligi, qayta sug'urtadan foydalanilganlik, kapitalning yetarliligi, moliyaviy mustahkamlik.

Xalqaro reyting natijalari butun dunyo bozorida yuksak baholanib, sug'urta kompaniyalarining ishonchiligi, to'lovga layoqatligi va moliyaviy barqarorligini ifodalaydi. Reyting agentligi tahlilchilarining fikriga ko'ra, sug'urta mukofotlarini yig'ish bo'yicha barqaror o'sish, sug'urta portfeli kapitallashuvining yuqori darajasi, faoliyatning diversifikatsiyalashuvi, milliy sug'urta bozoridagi mustahkam maqom kabi omillar sug'urtalovchining xalqaro reytingi oshishini ta'minlaydi. Xalqaro reyting natijalarini qo'lga kiritish nafaqat sug'urtalovchining nufuzini oshiradi, balki mamlakat sug'urta bozoriga juda katta naf keltiradi, bu ayniqsa qayta sug'urta bozorida yaqqol namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotning va xususan, moliya sohasidagi rivojlanishning bugungi bosqichida, korxona va moliyaviy tashkilotlar faoliyatining ochiq-oydinligi mijozlar, iste'molchilar va investorlar uchun sezilarli raqobat afzalliklarini taqdim etmoqda. Shuningdek, korxona va moliyaviy tashkilotlarning ham obyektiv axborotga bo'lgan ehtiyojlari katta. Moliyaviy ishonchilik reytingi bir vaqtning o'zida yuqorida keltirilgan barcha masalalarning yechimini topishdagi vosita hisoblanadi.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida sug'urta bozori ishtirokchilarining raqobatbardoshligini oshirishda sug'urtalovchilar faoliyatini reytinglashning ahamiyati beqiyos. Bozordagi raqobatdoshlikning yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish orqali o'ziga xos rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Reyting agentliklari tomonidan yuritiladigan baho bilan bir qatorda sug'urta sohasini nazorat qiluvchi organ tomonidan ham faoliyat ko'rsatkichlari har chorak, yarim yillik va yillik hisobotlar shaklida e'lon qilib boriladi. Shu jarayonda sug'urta kompaniyalarining belgilangan me'yor talablariga rioya etilishi ham nazorat qilinadi.

Sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatida sohani nazorat qiluvchi organning moliyaviy barqarorlikni oshirishga qaratilgan talablari va xalqaro standartlarga rioya qilishlari shart. Hozirgi vaqtda sug'urta sohasi turli tashkilot va muassasalarga xos an'anaviy risklar bilan birgalikda bir qator yangi sug'urta risklariga ham duchor bo'lmoqda. Sug'urtalovchilarning faoliyat doirasi sug'urta mukofotlarini yig'ish, to'lovlarni amalga oshirish, qayta sug'urtalash siyosati va hisobot berish bo'yicha qarorlar qabul qilish bilan bog'liq umumiy qabul qilingan

harakatlar tizimidan tashqariga chiqib, sezilarli darajada kengaydi. Shu bilan birga, bozorning o'zgaruvchanligi, yangi moliyaviy vositalarning paydo bo'lishi va buning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar doirasining kengayishi, umuman olganda, texnik taraqqiyot risklarni boshqarish jarayonini murakkablashtiradi. Sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyatini boshqarish maqsadlarida keng ma'noda risk "dinamik barqarorlik holatini yo'qotish ehtimoli va kutilgan natijadan chetga chiqish" sifatida ta'riflanishi mumkin [4.27].

Sug'urta kompaniyasining to'lov qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadigan strategik risklar biznes modelining hayotiyiligiga, kompaniyaning kapitallashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bunday risklarga qonunchilikdagi o'zgarishlar, texnologik zarbalar, shuningdek, bozor muvozanatini o'zgartirishi mumkin bo'lgan boshqa hodisalar kiradi. Aynan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sug'urta kompaniyalarining moliya bozoridagi boshqa tarmoqlar rivojiga, xususan, bank tizimi barqarorligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Bunday o'zaro bog'liqliklarning shakllanishi natijasida sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyatini ta'minlash va risk darajasini pasaytirish juda qiyin vazifaga aylanadi. Ushbu risklar tashkilotning yakuniy moliyaviy natijasiga ta'sir qilishi ularning xavf modeliga kiritilishini taqozo qiladi. Umuman olganda, sug'urta kompaniyasining moliyaviy natijasi asosiy faoliyat natijasi va qonun bilan ruxsat etilgan sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bo'yicha turli operatsiyalar natijasiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, moliyaviy natija nafaqat tashkilotning ichki faoliyati sharoitida, balki tashqi omillar ta'sirida ham shakllanadi. Natijada, sug'urta kompaniyalarini boshqarish, shu jumladan ularning moliyaviy barqarorligini baholash murakkab ehtimoliy tizimlar uchun ishlab chiqilgan konsepsiya va metodologiyalarga asoslanishi kerak. Ya'ni, moliyaviy barqarorlikni baholash uchun sug'urta kompaniyasining belgilangan talablarga javob berish ehtimolini tavsiflashi mumkin bo'lgan umumlashtirilgan omilni taklif qilish iqtisodiy jihatdan samaralidir.

Sug'urta sohasining raqobatbardoshligini ta'minlash, uning salohiyatini rivojlantirish, sug'urta munosabatlarini samarali amalga oshirish uchun ko'plab subyektlar, obyektlar, infratuzilma tarkibining birgalikdagi harakati talab etiladi. Umuman olganda, raqobatbardosh kompaniya deb faqat regulyatorning barcha zaruriy talablarini bajaradigan emas, balki resurslarni samarali taqsimlash, mavjud raqobatbardoshlik ustunliklaridan va innovatsion rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanish orqali rivojlanish salohiyatiga ega tashkilotlarga aytiladi[5.128]. Sug'urta sektorini rivojlantirishning o'ziga xosligi, unga ta'sir etuvchi omillar hamda rivojlanganlik darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar quyidagi jadvalda ifoda etiladi (1-jadval).

1-jadval.

Sug'urta sektorini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar*

O'ziga xosliklari	Omillar	Rivojlanish ko'rsatkichlari
Ichki talab	- sug'urta xizmatlariga muhtoj tarmoqlarning mavjudligi va rivojlanishi, to'lovga layoqatli aholi qatlami; - moliyaviy savodxonlik, yangi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyoj, iste'molchilarning sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonchi; - tavakkalchilik darajasi; - iqtisodiyotning rivojlanish darajasi.	- sug'urtaning kirib borganlik darajasi; - qamrov darajasi; - ishonch darajasi; - ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va yangi mahsulotlar bo'yicha bozor talablari; - ichki talabning o'sish salohiyati.
Talablar	- kadrlar bo'limi; - inson kapitali; - kapital va moliyaviy resurslar; - infratuzilma.	- malakali ishchi kuchining mavjudligi; - xalqaro tajriba almashish; - dasturiy ta'minotning mavjudligi yoki sotib olish imkoniyati; - ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati; - zarur quvvatlarning mavjudligi (sanoatdagi kapital).
Strategiya, tuzilma, raqobat va tarmoqlar	- missiya, strategiya, maqsadlar; - bozor tuzilmasi; - kompaniyadagi boshqaruv tuzilmasi; - raqobat.	- bozor tuzilmasi; - faoliyatning shaffofligi tamoyillari; - amaldagi hisobot standartlari; - ichki nazorat va audit amaliyoti; - risklarni boshqarish institutini rivojlantirish; - bozor konsyentratsiyasi darajasi; - bozorda raqobatning mavjudligi; - bozorda hamkorlikni rivojlantirish.
Tegishli va yordamchi tarmoqlar	- bank sektorini rivojlantirish; - agentlar va vositachilar; - axborot texnologiyalari; - qayta sug'urtalash; - aktuariylar instituti; - yo'qotishlarni o'rganish va hisoblash; - reyting agentliklari.	- sotuv kanallarini taqsimlash; - bank sug'urtasining ulushi; - sug'urta bozorida vositachilarning roli; - zarur mutaxassislarining mavjudligi; - zarur qayta sug'urta qilish imkoniyatlarining mavjudligi; - bozorda xalqaro reytingga ega qayta sug'urtalovchilarning mavjudligi.
Davlat	- nazorat va tartibga solish; - me'yoriy-huquqiy baza; - bozor bilan muloqot; - miqdoriy va sifat tadqiqotlarini o'tkazish.	- rivojlanish strategiyasi va yo'l xaritalarining mavjudligi; - soha faoliyatini tartibga soluvchi sifatli va qulay huquqiy-me'yoriy bazaning mavjudligi; - to'lov qobiliyati standartlari; - bozorning barqarorligini sinovdan o'tkazish.

**Manba: Jadval tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

Me'yoriy-huquqiy muhitni va prudensial nazorat tizimini takomillashtirish orqali sug'urta sektorining raqobatbardoshligini va uning investitsiya jozibadorligini oshirish konsepsiyasi mamlakatimiz bilan rivojlanishning taxminan bir bosqichida bo'lgan mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Turli sug'urta bozorlari rivojlanishining asosiy elementlarini solishtirish uchun, birinchidan, miqdoriy yoki sifat jihatidan baholanishi kerak bo'lgan, ikkinchidan, rasmiy xalqaro statistika yoki tahliliy hisobotlardan olingan ishonchli ma'lumotlarga asoslangan asosiy ko'rsatkichlar tanlovi tahlil qilindi. Ushbu tamoyilga ko'ra, asosiy ko'rsatkichlar sifatida tanlangan sug'urtaning kirib borish darajasi va

zichligi, moliya institutlari va xizmatlarning rivojlanishi, operatsion xarajatlar ulushi, yetarli darajada qayta sug'urtalash imkoniyatlarining mavjudligi, risklarni boshqarish va nazorat qiluvchi organlarning faoliyati kabi ko'rsatkichlar belgilandi[6.3]. Taklif etilayotgan mazkur ko'rsatkichlar raqobatbardoshlikning turli omillarini ham, to'lov qobiliyati standartlarining yangi darajasini joriy etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni ham hisobga olgan holda bozorning rivojlanish darajasini adekvat tarzda aks ettiradi.

O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tajriba o'rganishda Markaziy-sharqiy Yevropa mamlakatlarining sug'urta sektori holati SWOT-tahlil

asosida o'rganildi. O'rganishlar natijasida mazkur hududda sug'urta sektorining yetarli darajada rivojlanganligi bilan bir qatorda hal etilishi lozim bo'lgan jihatlar va ayrim tahdidlar borligi ma'lum bo'ldi.

2016-yilgacha Yevropa Ittifoqida amalda bo'lib kelgan Solvency II standarti 2008-2009-yillarda yuz bergan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davrida moliya sektori, shu jumladan sug'urta sektorida ayrim moliya va sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu o'z navbatida, ushbu standart bo'yicha sug'urta kompaniyalarining to'lov qobiliyati, kapitali yetarligiga o'atilgan talablarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. 2016-2020-yillarda Yevropa Ittifoqida Solvency II standartining joriy etilishi bilan bog'liq tajriba mazkur standart hayotiy ekanligini, sug'urta kompaniyalari duch kelishi mumkin bo'lgan barcha tavakkalchiliklarga mos ravishda kapital yetarli bo'lishini ko'rsatdi [8.10].

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida mahalliy sug'urtalovchilarning kapital yetariligi normativi xalqaro standartning

bozorda amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, to'lov qobiliyatini baholash standartlarini joriy etish alohida sohaga aylanmasligi, balki tarmoqning umumiy rivojlanish strategiyasiga kiritilishi kerak. Xususan, milliy bozorga ham xos bo'lgan talab omillaridan aholining moliyaviy savodxonligi yetishmasligi, ayrim aholi qatlamining moliyaviy barqaror emasligi, sug'urta madaniyatining shakllanmaganligi jamiyatda sug'urtaga bo'lgan munosabat va asosiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi. Tabiiyki, sug'urtalanuvchilarning manfaatlarini ta'minlashga e'tibor qaratilayotganiga qaramay, Solvency II direktivasi talabni boshqarishning bevosita vositasi emas, balki har qanday holatda ham mijozlar manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, risklarni boshqarish institutining rivojlanmaganligi ham e'tiborga olinishi kerak bo'lgan yana bir o'ziga xos omildir. Shunday qilib, tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro tartibga solish standartlarini joriy etish orqali sug'urta bozori barqarorligini oshirish nafaqat globallashuv natijasi, balki tarmoqning raqobatbardoshligi va

2-jadval.

Markaziy-sharqiy Yevropa mamlakatlarining sug'urta sektori SWOT-tahlili*

Kuchli tomonlari	• nisbatan yuqori o'sish sur'atlari (sug'urta mukofotlari); • sug'urta madaniyati darajasini oshirish; • mijozga yo'naltirilgan rivojlanish modeliga bosqichma-bosqich o'tish; • bozorda xalqaro guruhlarining mavjudligi; • yetarli darajada qayta sug'urtalash imkoniyati mavjudligi; • Solvency II ga tayyorgarlik ko'rish uchun yetarlicha vaqt; • majburiy sug'urta turlarining ko'pligi; • iqtisodiyotning ochiqqligi.	• aholining moliyaviy savodxonligi pastligi; • noan'anaviy sug'urta turlariga talabning pastligi; • yuqori narx sezgirligi; • texnik jihatdan maqbul darajadan past stavkalar; • yuqori vositachilik haqlari; • xususiy sektorning favqulodda vaziyatlarda davlat yordamiga tayanishi; • turli hududlarda zararlarni to'lamaslik xavfi; • risklarni boshqarishning past darajada rivojlanishi.	Zaif tomonlari
Imkoniyatlari	• bozorni rivojlantirish salohiyati; • iqtisodiy o'sish istiqbollari; • Yevropa Ittifoqi talablari va direktivalari asosida hayotni sug'urtalash bo'yicha o'sish kutilmalari; • onlayn sug'urta; • xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyati va narx raqobati.	• Yevropa Ittifoqida iqtisodiy vaziyatning yomonlashishi; • kapital qiymatining oshishi; • kapital talablarini kuchaytirish.	Tahdidlar

*Manba: [7.82]

mamlakatimizda joriy etilishi uchun sug'urta kompaniyalarining yetarli darajada texnik va tashkiliy tomondan tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlash zarurligi, bu sohani chuqur biladigan malakali mutaxassislarni jalb qilish lozimligi aniqlandi.

Xulosa. Xulosa qilish mumkinki, ikkala holatda ham to'lov qobiliyati standartlarini joriy etish o'sib borayotgan va rivojlanayotgan

investitsion jozibadorligini oshiradi. Milliy sug'urta bozorini nazorat qiluvchi organ tomonidan sug'urtalovchilarga qo'yilayotgan talablarning mohiyati ham to'lovga layoqatlilik ta'minlash va moliyaviy jihatdan barqarorlikka erishishdan iborat bo'lmoqda.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4412-sonli "O'zbekiston Respublikasining sug'urta bozorini isloh qilish va uning jadal rivojlanishini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2019-yil 2-avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 41-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilar va qayta sug'urtalovchilarning to'lov qobiliyati to'g'risida"gi Nizom. 2008-yil 22-aprel.
3. Mavrolova N.A. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning rolini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent-2019. 96-bet.
4. Ibidem. S. 27.
5. Жук И.Н. Управление конкурентоспособностью страховых организаций. – М.: «Анkil», 2011. – с.128.
6. Барабанова В.В. Использование элементов теории международной конкурентоспособности для определения стратегии развития страхового рынка//Страховое дело. 2018 № 10. С. 3 – 11.
7. Барабанова В.В. Международный опыт оценки платежеспособности страховых компаний. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2019. С.82.
8. Шеннаев Х.М. Solvency II va uni Ўзбекистон сугурта секторига жорий этиш истиқболлари. Молия ва банк иши электрон илмий журнали. V сон. сентябрь - октябрь, 2020. 10-бет.